




**Bankni strategik rivojlantirish
departamenti**

Jahon va moliya bozorlariga oid sharh

18 avgust, 2026 yil

SQB,NBU,AGRO BANK va IPOTEKA BANK evrobondlarining daromadliligi (20 oktabr 2025 yildan 18 iyul 2026 yilgacha Bloomberg ma'lumotlariga ko'ra, foizlarda)



SQB evrobondlarining daromadliligi

2024-yil iyul oyida SQB Londondagi fond birjasida xalqaro obligatsiyalarni joylashtirdi. Savdolarning birinchi kunida ularning daromadliligi 9,362%ni tashkil etdi.

SQB obligatsiyalarining daromadliligi o'tgan hafta boshida 6,3% darajasiga yetdi. Haftaning oxiriga kelib esa bu ko'rsatkich pasaydi va 6,26% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon daromadlilik 5,79% – 7,038% gacha o'zgarib turdi.

2025-yil oktyabr oyida SQB muvaffaqiyatli ravishda Londondagi fond birjasida xalqaro qo'shimcha birinchi darajali kapital (AT1) obligatsiyalarini joylashtirdi. Savdolarning birinchi kunida ularning daromadliligi 9,276%ni tashkil etdi.

SQB obligatsiyalarining daromadliligi o'tgan hafta boshida 9,538% darajasiga yetdi. Haftaning oxiriga kelib esa bu ko'rsatkich o'zgarishsiz qoldi. Yil boshidan buyon daromadlilik 8,978% – 9,679% gacha o'zgarib turdi.



NBU evrobondlarining daromadliligi

O'tgan hafta NBU evrobondlarining daromadliligi 6,188% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik pasayib 6,110% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 5,612-6,624% gacha o'zgarib turdi.



IPOTEKA BANK evrobondlarining daromadliligi

O'tgan hafta IPOTEKA BANK evrobondlarining daromadliligi 6,310% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik pasayib 6,295% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 5,733-6,724% gacha o'zgarib turdi.




AGRO BANK evrobondlarining daromadliligi

O'tgan hafta AGRO BANK evrobondlarining daromadliligi 6,443% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik pasayib 6,370% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 6,067-7,059% gacha o'zgarib turdi.

SOFR va Euribor


AQSH va Yevropadagi banklararo kreditlar bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi

SOFR dinamikasi



Yil boshidan buyon SOFR stavkasi 3,5-3,73% atrofida barqaror bo'lib turmoqda. Haftaning boshida SOFR stavkasi 3,63% ni tashkil etdi, haftaning oxiriga kelib ko'rsatkich biroz pasayib — 3,62 darajasida qoldi. Bu bozor likvidligi va monetar siyosatdagi kutilmalarning o'zgarishlarini ko'rsatadi. Federal rezervning foiz stavkalari bo'yicha pozitsiyasi SOFR stavkasi darajasini belgilashda davom etmoqda. Siyosiy o'zgarishlar kutilmalari stavkada kichik o'zgarishlarga olib kelishi mumkin.


Euribor dinamikasi



Euribor kutilganidan tezroq pasaymoqda. Yevropa Markaziy banki foiz stavkasini tez sur'atlar bilan kamaytirishni davom ettirmoqda. Buning sabablaridan biri – inflyatsiyaning pasayishi. Yevropadagi ko'plab ipoteka kreditlari bog'langan Yevropa banklararo stavkasi (Euribor) o'tgan haftaning boshiga kelib 2,508% (3 oylik) va 2,671% (6 oylik) darajalariga tushdi. 2023-yilning oktyabr o'rtalarida foiz stavkasi 4% dan oshgan edi. Euribor stavkasining tarixdagi eng yuqori darajasi 2008-yilning qishida qayd etilgan bo'lib, u deyarli 5,5% ni tashkil etgan. Yil boshidan buyon maksimal ko'rsatkichlar 2,724% (6 oylik) va 2,511% (3 oylik) ni tashkil etdi.


O'zbekiston valyuta bozori

O'zbekiston Respublikasi valyuta birjasidagi savdo hajmi, mln dollar



- ✓ O'tgan hafta valyuta birjasidagi savdo 840,8 million dollarni tashkil etdi, bu o'tgan haftaning savdo hajmiga nisbatan 61,8 million dollarga kamroq.
- ✓ O'tgan haftaning boshida milliy valyutaning dollarga nisbatan maksimal kursi 11 934 so'mni tashkil etdi, keyin haftaning oxiriga kelib pasayib 11 891 so'mga yetdi.
- ✓ Har yili so'm o'rtacha 3,5-4,5% ga devalvatsiyaga uchraydi, 2023-yildan tashqari (9,77%), bu holat Rossiya valyutasi devalvatsiyasi eksport tushumlari kamayishi va mehnat migrantlarining pul o'tkazmalari bilan bog'liq edi. Joriy yil boshidan buyon devalvatsiya 0,51% ni tashkil etdi.

Dollarning so'mga nisbatan almashinish kursi




18.08.2026 yil holatiga ko'ra, aholi uchun dollar sotib olishda eng foydali kurs *Universal bank da* qayd etilgan – 11 855 so'm. Boshqa banklarda esa kurs 11 850 – 11 770 so'm atrofida o'zgarib turdi.




Aholi uchun dollar sotish bo'yicha eng foydali kurs Poytaxt *bankda* qayd etilgan – 11 870 so'm. Boshqa ko'plab banklarda esa kurs 11 890 – 11 915 so'm atrofida bo'lgan.

Valyuta juftliklariga oid sharh (Refinitiv Eikon)


USD-RUB dinamikasi



RUB-YUAN dinamikasi



EUR-USD dinamikasi



USD/RUB: rublning zaiflashuvi davom etmoqda

10–14 avgust kunlari USD/RUB kursi 82,5 rubldan 84,2 rublgacha ko'tarilib, rublning zaiflashganini ko'rsatdi. Eng sezilarli o'zgarish 14 avgust kuni kuzatildi. Qisqa muddatli istiqbolda USD/RUB kursining keyingi o'sishi uchun imkoniyat saqlanib qolmoqda. Kurs 84 rubl darajasidan yuqorida mustahkamlangan taqdirda, keyingi maqsad 85–86 rubl oralig'i bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, keskin o'sishdan so'ng 83–84 rubl oralig'igacha texnik korreksiya ehtimolini ham istisno qilib bo'lmaydi. Kurs dinamikasining asosiy omillari eksport tushumlarining sotilishi, neft narxlari hamda pul-kredit siyosati bo'lib qolmoqda.



UB/CNY: rublning yuanga nisbatan pozitsiyasi zaiflashmoqda

10–14 avgust kunlari RUB/CNY kursi 11,9 rubldan 12,2 rublgacha ko'tarilib, rublning yuanga nisbatan qariyb 2,5% zaiflashganini ko'rsatdi. Eng sezilarli o'zgarish 13–14 avgust kunlari kuzatildi. Qisqa muddatli istiqbolda rublning yuanga nisbatan yanada zaiflashishi xavfi saqlanib qolmoqda. Kurs 12,2 rubl darajasidan yuqorida mustahkamlangan taqdirda, keyingi maqsad 12,3–12,5 rubl oralig'i bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, kursning tez o'sishidan so'ng 12,0–12,1 rubl oralig'igacha korreksiya kuzatilishi mumkin. Asosiy omillar eksport tushumlarining sotilishi, neft narxlari dinamikasi va pul-kredit siyosati bo'yicha kutilmalar bo'lib qolmoqda.




EUR/USD: yevro barqarorligini saqlab qolmoqda


10–14 avgust kunlari EUR/USD juftligi deyarli o'zgarmadi va 1,1565 dan 1,1585 dollargacha ko'tarildi. Shu bilan birga, juftlik 1,15–1,16 oralig'ida harakatlanib, nisbatan barqaror dinamikani namoyish etdi. Qisqa muddatli istiqbolda juftlik dinamikasi AQSh Federal zaxira tizimi (FZT) va Yevropa Markaziy bankining (YMB) pul-kredit siyosati bo'yicha kutilmalariga bog'liq bo'ladi. FZT tomonidan foiz stavkasini oshirish bo'yicha kutilmalarining susayishi yevroni qo'llab-quvvatlamogda. EUR/USD 1,16 darajasidan yuqorida mustahkamlangan taqdirda, juftlikning o'sishi davom etishi mumkin. Aksincha, 1,15 darajasidan pastga qaytish dollar pozitsiyalarining kuchayganidan dalolat beradi.

Asosiy xom ashyo tovarlari narxlariga oid tahlil


Oltin narxlar dinamikasi
(bir untsiya uchun, AQSh dollarida)



Brent nefti narxlar dinamikasi
(bir barrel uchun, AQSh dollarida)



TTF gaz narxlar dinamikasi
(megavatt-soat uchun, AQSh dollarida)



Oltin: o'sishdan keyingi korreksiya



10–14 avgust kunlari oltin narxi 4 388,5 dollardan 4 375,9 dollargacha pasaydi, biroq bozor yuqori volatillikni namoyish etdi. Dollar kursining zaiflashuvi va FZT stavkasi bo'yicha kutilmalar oltinga bo'lgan qiziqishni qo'llab-quvvatladi. Ikki oylik maksimum yangilangach, foydani qayd etish kuchayib, kotirovkalarning keyingi o'sishini chekladi. Qisqa muddatda oltin narxi 4 300–4 450 dollar oralig'ida konsolidatsiyalanishi mumkin. Umuman olganda, oltin bozorida yuqori volatillik saqlanib qolmoqda, biroq fundamental omillar ijobiyliciga qolmoqda.

Brent: neft narxlarining o'sish dinamikasi saqlanmoqda



10–14 avgust kunlari Brent narxi 87,72 dollardan 88,52 dollargacha ko'tarildi, biroq hafta davomida yuqori volatillik kuzatildi. Kotirovkalar geosiyosiy xatarlar va yetkazib berishdagi uzilishlar bo'yicha xavotirlar fonida qariyb 6% ga oshdi. Shu bilan birga, global talabning pasayishi kutilmalari va AQShdagi neft zaxiralarining ortishi narxlarining o'sishini cheklamoqda. Qisqa muddatda Brent narxining 90 dollar darajasiga yetish salohiyati saqlanib qolmoqda. Umuman olganda, neft bozorida xatarlar yuqori bo'lib, keyingi dinamika ko'p jihatdan geosiyosiy vaziyatga bog'liq bo'ladi.

TTF: gaz narxlarining o'sishi davom etmoqda



10–14 avgust kunlari TTF gazi narxi 67,2 dollardan 70,6 dollargacha oshib, qariyb 5% ga o'sdi. O'sish Yevropaga gaz yetkazib berish bilan bog'liq xatarlar fonida yuqori volatillik bilan kechdi. Qisqa muddatda kotirovkalarning 72–75 dollar/MVt-soat darajasiga ko'tarilish ehtimoli saqlanmoqda. Shu bilan birga, bozorning geosiyosiy vaziyat va gaz zaxiralari darajasiga yuqori sezgirliги keskin korreksiya xavfini oshirmoqda. Umuman olganda, Yevropa gaz bozorida qisqa muddatli xatarlar yuqoriliciga qolmoqda.